

The article scientifically and practically substantiates as a pedagogical problem the improvement of the innovation-integration mechanism based on independent education and technologies "Knowledge through Science" in line with the stagnation of innovative development and the mechanism for the formation of expert criteria for assessing the development of "Knowledge-skill-qualification-competence" of students on the example of the subject "Strength of materials" in the harmonization of theory and practice according to the European credit transfer system in theoretical and practical combination in accordance with the European credit-transfer system.

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA FUQAROLIK POZITSIYANI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

N.T.Orinbetov – o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: fuqaro, fuqarolik, jamiyati, fuqarolik pozitsiyasi, qonun ustuvorligi, huquq va erkinliklar, qadriyatlar.

Ключевые слова: гражданин, гражданство, гражданское общество, гражданская позиция, верховенство закона, право и свобода, ценности.

Key words: citizen, citizenship, civil society, civic stand, the rule of law, rights and freedoms, values.

Akademik litseylarda tahsil olish yoshi shaxsning faol shakllanishi, o'zini mamlakat fuqarosi deb anglaydigan davri bo'lgani bois, ushbu ta'lim bo'g'ini o'quvchilarini fuqarolik tarbiyalashning mavjud ijtimoiy va pedagogik tajribasini qayta baholash, ta'lim va darsdan tashqari faoliyat jarayonida ishni istiqbollarini yoritish va yangi shakllarini qidirish zarurati kelib chiqdi.

Bugungi kunda O'zbekiston fuqarosining davlat va jamiyat bilan munosabatlari tubdan o'zgarib qoldi. U o'zini hayotning turli jabhalarida mustaqil shaxs sifatida ro'yobga chiqarishning katta imkoniyatlariga ega bo'ldi, shu bilan birga o'zining va boshqa kishilarning taqdiri uchun ma'suliyati ham benihoya oshdi. Bunday kishini tarbiyalash, fuqarolik tarbiyaning bosh strategiyasi yo'nalishida muvaffaqiyatga erishish faqatgina shaxsni ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatga jalb qilish va ularda ongli ishtiroki, o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, globallashuv davri salbiy hodisalari xavfini kamaytirish va akademik litsey yoshlarini ma'naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalash uchun ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarur. Zero, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarga jamiyatning asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglaydi.

O'zbekiston «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi va ushbu davrning ta'lim-tarbiya tizimiga qo'ygan aniq, qat'iy talablari «Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi»da o'z aksini topdi. Ushbu kontseptsiyada o'quvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinadigan jihatlar sirasida «fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi», «faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish» kiritiladi [1].

Shuning uchun akademik litsey o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirishda «fuqarolik pozitsiya», «faol fuqarolik pozitsiya» tushunchalarining mohiyatini, mazmunini va xususiyatlarini yoritish, tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari ijtimoiy munosabatlar tizimidagi fuqarolik jamiyatining obro'si fuqarolarning mutlaq ko'pchiligini o'z institutlari faoliyatiga, ularning faolligi, uyushmasi va birdamligini aniq maqsad va qadriyatlarni amalga oshirishga jalb qilish bilan to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir.

Shu bois quyidagi savollarga javob topish tadqiqotimiz mohiyatidan kelib chiqib, o'ta muhimdir: fuqarolik pozitsiya nima; bu pozitsiya qanday namoyon bo'ladi; ushbu ijtimoiy hodisani baholash mezonlari qanday; qanday qilib zamonaviy ta'lim har tomonlama fuqarolik sotsializatsiyasiga, shaxsning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin?

Ijtimoiy hodisa sifatida shaxsning fuqarolik pozitsiyasi nimadan iborat?

Ushbu savollarga javob topish uchun fuqaro, fuqaroviylik, faol, pozitsiya kabi tushunchalarning mohiyatiga murojaat etishimiz zarur bo'ladi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «faol» (arabcha «harakat qiluvchi, ta'sirchan») so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: 1) biror g'oyaviy harakat yoki ishga g'ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan;

2) biror jamoaning ijtimoiy hayoti, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan, jamoatchi;

3) harakatchan, ko'p harakat qiladigan [2].

Fuqarolik – fuqaro ekanlik; fuqarolarga oidlik; fuqaroning huquqiy holati degan ma'nolarni beradi [3].

Pozitsiya (lotincha position – holat, vaziyat):

1) har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o'rni, ishg'ol qilib turgan joyi, mavqei, holati, vaziyati;

2) qo'shinning mudofaa yoki hujum qilish maqsadida egallab turgan va muhandislik nuqtayi nazaridan jihozlangan yer maydoni;

3) shaxmat va shashka o'yinida donalarning joylashish holati;

4) biror masalada tutilgan yo'l, nuqtayi nazar; voqea-hodisaning muayyan bahosi [4] degan ma'nolarda keladi.

Fuqaro (arab. faqir so'zining ko'plik shakli) – muayyan davlat Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlardan foydalana oladigan, qonunlarda ko'rsatib o'tilgan burchlarni bajarish shart bo'lgan shaxs [5].

Fuqaroviylik mamlakatning rivojlanish bosqichlarida, boshqacha aytganda o'tish davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ham ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan, aniqrog'i fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda fuqaroviylik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqaroviy faollikning negizini anglash uchun avvalo fuqaroviylikning nazariy mohiyatini tushunish talab etiladi.

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin.

V.Dal'ning qayd etishiga qaraganda, «fuqaroviylik fuqarolik jamiyatini tuzish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etgan holatdir» [6].

Ko'rinib turganidek, fuqaroviylik nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning bilimi va jamiyatning holatini anglashi, ijtimoiy me'yorlardan xabardorligi va ularga rioya qilishiga bog'liq. Bu yerda fuqarolar tomonidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshiriladigan birdamlik, o'zaro hamkorlik singari ixtiyoriy faoliyat ham nazarda tutiladi. Bunday holatda fuqaroviylikda huquqqa nisbatan ma'naviyatning ustuvorligi namoyon bo'lmoqda. Aslida ko'pgina an'anaviy jamiyatlarda hamisha fuqaroviylik huquqiy mazmunda emas, balki ko'proq ma'naviy axloqiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Fuqaroviylik bir tarafdin jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi.

Pozitsiya - nuqtayi nazar, biror narsaga munosabat; harakatlar, xatti -harakatlar; shu munosabat, baho bilan shartlangan xatti-harakatdir. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsning fuqarolik fazilatlarini namoyon bo'lishi, odam o'zini ijtimoiy munosabatlarning to'laqonli suveren sub'ekti sifatida ko'rsatishi, demokratik jamiyatda o'z o'rnini, o'z hayotiy mo'ljallari va ularga erishish yo'llarini belgilashi kerak.

Shaxsning fuqarolik pozitsiyasini ifodalash shakllari xilma-xildir. Masalan, sotsiologlar shartli ravishda quyidagilarni ajratadilar: ijodiy; isyonkor (norozilik); konformist (iste'molchi); passiv, shu jumladan passiv befarq (passiv baholovchi) [7].

Bu shakllar bir-birini o'zaro kesishi, konkret vaziyatda o'zgarishi mumkin. Shaxsning jamiyat va davlat hayotidan axloqsiz ravishda begonalashishi, umumiy qabul qilingan fuqarolik qadriyatlarini, ideallari va ijtimoiy hayot shakllaridan voz kechishi, albatta, aksilfuqaroviy pozitsiya sifatida baholanadi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi - bu shaxsning jamiyat hayotidagi ongli ishtiroki, u shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar muvozanati saqlagan holda ijtimoiy qadriyatlarini munosib tarzda amalga oshirishga qaratilgan voqelikka shaxsiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan uning ongli real harakatlarini (qilmishlarini) aks ettiradi. Faol fuqarolik pozitsiya komponentlariga faollikning uchta turini kiritish mumkin:

- ijtimoiy faollik,
- fuqarolik o'z-o'zini anglash,
- fuqarolik fazilatlarini.

Ijtimoiy faollik - bu mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyatga ongli, konstruktiv munosabat, uning natijasi sifatida shaxsning chuqur va to'liq o'zini o'zi anglashi tushuniladi. Faollik mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyatning mutanosib uyg'unlashishini bildiradi. Chuqur bilim, har tomonlama rivojlangan qobiliyat va fuqarolik ongining mavjudligi shaxsning hayotga faol munosabatini talab qiladi, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur bilishga asoslangan ongli faollik ijtimoiy faollikni nazarda tutadi.

Shaxsning fuqarolik o'z-o'zini anglashi shaxsiy hayotiy pozitsiya asosida shakllanadi, unda shaxsning o'z bilimini, o'z axloqiy qiyofasini, qiziqishlarini va ideallarini, harakat tarzining motivlarini anglash, idrok yetish; o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan pozitsiyani ifodalovchisi sifatida qabul qilgani uchun, o'zini yangi narsaning yaratuvchisi, his-tuyg'u egasi va fikrlaydigan shaxs sifatida o'zi to'g'risida yaxlit mulohaza kabi jarayonlar bo'lishi kerak. O'z ichki dunyosini anglash qobiliyati insonning shakllangan ijtimoiy ko'rsatmalari mavjudligiga bog'liq. Fuqarolik o'z-o'zini anglash darajasiga, shuningdek, refleksiyaga va adekvat o'z-o'zini baholashga qobiliyatlik kiradi.

Fuqarolik fazilatlarini, o'z navbatida, ijtimoiy muhit va shaxsning muayyan yaratilgan vaziyatlardagi shaxsiy sa'y-harakatlari ta'siri ostida rivojlanadi. O'z vataniga muhabbat (eslatma: davlat bilan adashmaslik), o'z xatti-harakatlari va ishlari uchun mas'uliyat hissi, mustaqillik va tadbirkorlik - bu fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida bu fazilatlar bilan bog'liq shaxsiy ehtiyojlar va ijobiy motivlarini shakllantirish va takomillashtirish katta rol o'ynaydi.

Binobarin, fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga shaxs hozir bo'lgan muhit va sharoitlar ta'sir qiladi va ijtimoiy faoliyatda uning ijtimoiy faolligi, samaradorligi va fuqarolik fazilatlarining namoyon bo'lishi orqali amalga oshiriladi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi - bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ishga majburiy qiziqish, tashkilotchilik qobiliyati,

tashabbuskorlik va tirishqoqlik, shaxsiy ahamiyatini adekvat tushunish. Shaxsning davlatdagi mavjud vaziyatni va jamiyatdagi kayfiyatni muhokama qilishda qanday pozitsiyani egallashi, o'z fikrlariga tanqidiy tanbehlar va baholarga qanday munosabat qilishiga qarab, insonning ijtimoiy faolligi va uning fuqarolik fazilatlarini (ya'ni, faol fuqarolikning asosiy komponentlari) to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yerda jamiyatning davlat faoliyatidan xoli holda jamoaviy tashabbuslar bilan rivojlanishi nazarda tutilmoqda. Bu partiylarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi.

Aslini olganda jamiyat a'zolarining asosiy ko'pchiligi jamiyatda mavjud qoidalar asosida faoliyat yuritgan holda ijtimoiy faollik ko'rsatishmaydi. Bunday passivlikning jamoat tartibini saqlash nuqtayi nazaridan qaysidir darajada ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lsa-da, fuqarolik jamiyatini qurishda fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga ega ekanligini esda tutish lozim. Zero passiv fuqarolar hech qachon o'z huquqlari uchun kurashishmaydi. Fuqaroviy faollik o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladi. Ko'pgina hollarda fuqaroviy faollikning boshlang'ich nuqtasi sotsiologlarni qiziqtirgan masaladir. Zero aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy o'zgarishlar davlat yetakchiligida amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashishadi.

Ko'pincha fuqaroviy faollik yoshlarda kuzatiladi. Albatta fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omil faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Bilim darajasi, dunyoqarash, tarbiya va hatto yashash manzili ham bunga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pincha yoshlar (akademik litsey yoshlari ham) fuqaroviy faollik ko'rsatishni istashsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsata olmaydilar. Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati murakkab bo'lganligi tufayli o'z istaklarini siyosatchilar oldida to'g'ri shakllantirishga qodir bo'lmaydilar. Boshqa tarafdin siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'lganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda murakkabliklarga duch kelishlari mumkin. Shu tufayli ularning ba'zilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishadi, aksariyati esa umuman siyosatga qiziqmay qo'yadilar.

Biror-bir sohada muammolarni bartaraf etish imkoniyati nodavlat notijorat tashkilotlarida mavjud bo'lganligi tufayli yoshlarning aksariyati shunday tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishadi. Davlatning siyosiy tuzilmalarida professional faoliyatga kirish fuqaro yoshlardan ma'lum ish tajribasi, bilim va ko'nikma talab qilsa, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lib kirish uchun ish tajriba talab etilmaydi, balki faqat qiziqishning o'zi yetarli bo'ladi.

Aynan fuqaroviy faollikning o'zi bir necha jihatlari bilan ajralib turadi:

- faol fuqaro guruhiga mansub kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat;
- faol fuqarolarda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud;
- faol fuqarolarda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi [8].

Fuqarolik faolligi bugungi kunda davlat uchun misli ko'rilmagan ko'makchiga aylanmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar ro'y berayotgan, tug'ila-yotgan va mavjud muammolarni muhokama qilish, ularning yechimini topish va hukumatga taklif etish imkoniyatiga ega. Turli nodavlat tuzilmalaridagi yetuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro'y beradigan muammolar, bozorning betartib jarayonlarida yuzaga ke-

ladigan muammolarni bartaraf etishga hukumatga ko'makchilik qilmoqdalar.

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik jamiyati uchun fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga egadir. Taraqqiyotni

maqsad qilgan har qanday jamiyat uchun inson salohiyatidan foydalanish, insonning o'zligida, uning qalbida mavjud bo'lgan birdamlik, saxiylik, bag'rikenglik kabi fazilatlarga murojaat etishning o'zi kifoyadir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 31- dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son qarori.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 325-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 369-b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 325-b.
5. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: 2009, 595-b.
6. Dal V.I. Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika (sovremennoe napisanie slov). Izd. "Tsitate". – Moskva: 1998.
7. Baranov P.A. i dr. Grajdanskoe obrazovanie – pedagogicheskiy, sotsialniy i kulturniy fenomen. SPb., 2006. – S.167.
8. Karpova N.V. Politicheskaya kultura v protsess stanovleniya grajdanskogo obshestva. // Vestnik Moskovskogo universiteta. – Ser. 18 : Sotsiologiya i politologiya. 2006. №1.

РЕЗЮМЕ

Maqolada fuqarolik, fuqaroviylik, faol fuqarolik, pozitsiya, ijtimoiy faollik tushunchalari va ularning ma'no-mazmuni berilgan. Shuningdek, maqolada akademik litsey o'quvchilarida ta'lim-tarbiya jarayonida fuqarolik, faol fuqarolik, ijtimoiy faollik tushunchasini va fuqarolik pozitsiyani tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье приводятся понятия гражданство, гражданственность, активное гражданство, позиция, общественная активность и их значение. Также в статье изложены научно-теоретические основы воспитания у учащихся академических лицеев понимания гражданской, активной гражданской, социальной активности и гражданской позиции в процессе обучения и воспитания.

SUMMARY

The article presents the concepts of citizenship, citizenship, active citizenship, position, social activity and their meaning. The article also outlines the scientific and theoretical foundations of educating students of academic lyceums to understand civic, active civic, social activity and civic position in the process of education and upbringing.

МАХСУС ФАНЛАР ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФОЙДАЛАНИШИ

А.О.Очилов – катта ўқитувчи

Қарши давлат университети

Таянч сўзлар: инновацион таълим, таълим технологиялар, концептуал ёндашувлари, медиа технология, таълимий педагогик, замонавий ўқитиш.

Ключевые слова: инновационное образование, образовательные технологии, концептуальные подходы, медиа технологии, организационно-педагогические, современное обучение.

Key words: innovative education, educational technologies, conceptual approaches, media technologies, organizational and pedagogical, modern teaching.

Мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича устувор вазифаларга мувофиқ кадрлар тайёрлашнинг мазмунини тубдан қайта қўриб чиқиш, халқаро стандартлар даражасида олий маълумотли ўқитувчиларини тайёрлашга зарур шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон қарори қабул қилинди.

Мазкур қарор билан олий таълим даражасини сифат жиҳатдан ошириш ва тубдан такомиллаштириш, олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва модернизация қилиш, замонавий ўқув-илмий лабораториялари, ахборот-коммуникация технологиялари билан жиҳозлаш бўйича Олий таълим тизимини 2017-2021 йилларда комплекс ривожлантириш дастури тасдиқланди [1].

Бу шундан далолат бермоқдаки, ўқитувчи таълим мазмунини такомиллаштиришда ҳар бир машғулоти учун ўқув-кўргазмалар, қўроқлар, маълумотлар, материаллар тайёрлаш, ўқувчиларга янги билим бериш, тушунириш, кўрсатиш, намойиш қилиш, уларнинг турли йўналишларига эътибор қаратиш ўз устида ишлаш малакаларини шакллантириш, соҳаларга, шу жумладан замонавий инновацион таълим технологияларини қўллаш, сўнгги янгиликлардан кенг фойдаланиши ўқитувчининг асосий вазифалари ҳисобланади.

Масалан, махсус ва умумқасбий фанларни ўқитишда зарур бўлган жиҳозлар, моделлар, чизма лойиҳалари, макетлар, кўргазмалар, тарқатма материаллар, карточкалар, саволномалар, йўриқномалар, қизиқарли савол ва топшириқлар, турли муаммоларни ҳал қилишга ёрдамчи бўладиган асосий вазифаларни яратувчи мосламалар, ўқитишнинг амалга ошириш ўқувчиларнинг ушбу мавзунини яхши тушуниб олиш имкониятини беради.

Демак, “назарий ва амалий машғулоти, шу соҳада ўрганиладиган махсус фанларнинг мазмунини янги маълумотлар билан тўлдириш, манбалар билан мустақил ишлаш қўникма ва малакаларини ривожлантиришга амалий ёрдам кўрсатади, талабаларнинг хотирасини, ижодий қобилиятларини, жисмоний баркамоллигини таъминлайди”[2]. Булар махсус фанларни ўқитишнинг педагогик асосларини янада ривожлантиради.

Фан-техниканинг ривожлантириши натижасида махсус фанларни ўқитишда ўқитувчининг амалий-методик тайёргарлиги талабаларга чуқур маълумот бериш, ўқитиш самарасини ошириш, ўқув-тарбия жараёнини такомиллаштириш, янги маълумотларни ўзлаштиришда замонавий инновацион таълим технологиялари муҳим омили бўлиб хизмат қилади. Чунки, таълим муассасаларида махсус фанларни ўрганиш асосида ўқитувчи фойдаланадиган замонавий инновацион таълим технологиялари жиҳозлар касбларга оид материаллар ҳақида маълумотлар бериши уларда ўз мутахассислигини чуқур ўрганишга бўлган қизиқишини ривожлантириш билан бирга турли топшириқларни бажаришда ва саволларга жавоблар топишда қўникма ҳосил бўлишида ёрдам беради.

Ўқув фани бўйича замонавий инновацион таълим технологияси қуйидагилардан келиб чиқиб ишлаб чиқилади:

- Ўқув юртида таълимни технологиялаштириш қоидаси;
- фан бўйича ўқув ахборот мақсади, тузилмаси, мазмуни ва ҳажми;
- ДТС томонидан белгиланган, ўқув режасида аниқлаб берилган вақтда ва берилган шароитда таълим бериш мақсадида эришишни қафолатловчи ўқитиш, мулоқот, ахборот ва бошқарувнинг йўли ва воситаларини танлашнинг концептуал ёндашувлари.